



Maxbuba JUMANIYOZOVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti
E-mail: maxbubajumaniyozova94@gmail.com

13-14 YOSHLI O'QUVCHILARDA JISMONIY KUCHNI RIVOJLANТИRISH METODLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 13-14-yoshli o'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlanтиrish metodlarining ahamiyati borasidagi ilmiy pedagogik, fiziologik tarixiy nazariy va uslubiy manbalar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kuch, jismoniy, fiziologik, maksimal kuchlanish, dinamik kuchlanish, metod, zarbdor metodi, statik metod, statodinamik metod.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ СИЛЫ У УЧАЩИХСЯ 13-14 ЛЕТ

Аннотация

В данной статье освещается анализ научно-педагогических, физиологических исторических теоретических и методических источников о значении методов развития физической силы у учащихся 13-14 лет.

Ключевые слова: Сила, физический, физиологический, максимальное напряжение, динамическое напряжение, метод, ударный метод, статический метод, статодинамический метод.

THE IMPORTANCE OF METHODS OF PHYSICAL STRENGTH DEVELOPMENT IN STUDENTS AGED 13-14

Annotation

This article highlights the analysis of scientific, pedagogical, physiological, historical, theoretical and methodological sources on the importance of methods for the development of physical strength in students aged 13-14 years.

Key words: Force, physical, physiological, maximum stress, dynamic stress, method, shock method, static method, statodynamic method.

Kirish. Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin - olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan jismoniy madaniyat darslariga, o'quv - mashg'ulot jarayonlariga yangicha nazar bilan yondashish taqozo etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-martdag'i PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi tizimini takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zahirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta'minlash ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[1].

Dunyoning barcha davlatlarida o'quvchi yoshlar orasida sog'lomlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq so'nggi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarlik holati pasayib borishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri umumta'lim muktablaridagi jismoniy tarbiya jarayonining past samaradorligi, jumladan, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy holatiga nisbatan individual yondashuvning yetarli darajada olib borilmayotganligi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon xalqlari jismoniy madaniyat va uning mazmunini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonlari uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan ilmiy-pedagogik faoliyatlardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarixini o'rganish, ilmiy tadqiqotlarning natijalarini fan va kundalik hayotda qo'llashda N.I.Ponomaryev, S.D.Sinikin, F.I.Samoukov, N.I.Toropov, G.D.Xarabuga, Yu.P.Simakov kabilarning xizmatlari e'tiborga loyiqidir. Ayniqsa, XX asrning ikkinehi yarmida «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» darsliklari, o'quv qo'llanmalarini nashrdan chiqarishda V.V.Stolbovning alohida o'rni bor[2].

Jismoniy mashqlarni pedagogik belgilari bo'yicha dastlab P.F.Lesgaft tasniflagan. Uning tizimida jismoniy mashqlar quyidagicha: gimnastika, sport, turizm, o'yinlardan iborat. Ammo,

ushbu tasnif zamонавиyl talablarga javob bermaydi, lekin jismoniy mashqlami tasniflash, taqsimflash, pedagogik belgilari asosida aniqlangan jismoniy mashqlarni umumlashtirish g'oyasi tizimlashtirishga asos bo'ldi. Shuni qayd qilish lozimki, pedagogik belgilari bo'yicha barcha talablarga javob beradigan jismoniy mashqlaming yagona tasnifi hanuzgacha yechimini topmadi[3].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, insonning mutloq kuch darajasi ko'proq muhit omillari (mashg'ulot, mustaqil shug'ullanish va boshqalar) bilan belgilanadi. Ayni paytda nisbiy kuch ko'rsatkichlarida genotip ta'sirini ham yaqqol ko'rish mumkin. Tezkor - kuch qobiliyatları irları va muhit omillariga taxminan teng darajada bog'liq. Statik kuch chidamliligi ko'proq irları shart - sharoitlar bilan belgilanadi, dinamik kuch chidamliligidagi esa genotip va muhit ta'siri teng miqyosda aks etadi (V.I.Lyax, 1977).

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o'rganilgan ma'lumotlarga asosanib izchillik, ketma-ketlik, mantiqiy tahlil tamoyillariga asoslangan holda 13-14 yoshli o'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlanтиrish metodlarining ahamiyati, fiziologik asoslari tadqiq qilindi.

Muhokama. Turli xil fizikaviy jarayonlarda hosil bo'ladigan va ishlatalidigan barcha energiya turlaridan (issiqlik, mechanik, kimyoviy, gravitatsiya, elektromagnit, yadro va boshqalar) faqat mushak faoliyatiga tegishli bo'lsa, asosiy e'tibor organizmning kimyoviy energiyasiga qaratilgan bo'lishi kerak, uning manbai oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, uni insonning mechanik energiyasiga aylantirishdir (garchi ba'zi hollarda sportda issiqlik, gravitatsiya, quyosh va boshqa turdag'i energiyalardan foydalanan muammosiga duch kelinadi)[4].

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy turmushda, ayniqsa, bolalarning jismonan baquwat qilib tarbiyalash, harbiy-mudofaa ishlari ishtiroy etuvchilarining jangovorlik holatlarini takomillashtirishda Yevropa qit'asida mayjud bo'lgan davlatlarning ish tajribasi katta o'rinn tutadi. Bunga qadimgi yunonlarning (Gretsiya) jismoniy tarbiya tizimi (sistemasi) tarixiy jiliyatdan e'tiborga molikdir. Chunki bu tizim davrlar o'tishi bilan deyarlik jahonga, shuningdek, sobiq Ittifoqda ham o'z mazmuni va möhiyatiga ega bo'ldi[2].

Bolalar va o'smirlarda kuchning eng samarali rivojlanishi 13 -14 yoshdan 17 -18 yoshgacha, qiz bolalar va qizlarda 11 – 12


yoshdan 15 – 16 yoshgacha bo‘lgan davr hisoblanib, tana umumiy og‘irligi massasiga mushaklar massasi ulushi (10 – 11 yoshda 23 % ni, 14 – 15 yoshda 33 % ni, 17 – 18 yoshda 45 % ni tashkil qiladi) biroz darajada mos keladi. 9 yoshdan 11 yoshgacha, ayniqsa, kichik maktab yoshida nisbiy kuchning o‘sish maromi turli mushak guruhlarida kuzatiladi.

Endi esa bugungi kundagi sportdagi kuch qobiliyatlarini rivojlaniruvchi mashg‘ulotlar tasvirlangan rasmlga yuzlanamiz. Usbu rasmida ketma-ketlikda kuch qobiliyatları, kuchni rivojlanish darajasini baholash uchun nazorat mashqlari tafsiflangan quyidagi rasm orqali ularni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Jismoni tarbiya amaliyotida son jihatdan kuch imkoniyatlari ikkita usulda:

1) dinometr, dinamograf, tenzometrik – kuch o‘lchov moslamalari yordamida;

2) maxsus nazorat mashqlari, kuchga doir testlar yordamida baholanadi.



Natijalar va tahlillar. Avvalo ushu energiya ta'minotining samaradorligini va sportchining uzoq muddatli ishdagi chidamliligini belgilaydigan muhim parametr anaerob almashinuv chegarasi (PANO) ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanishi mumkin bo‘lgan mavjud funksional salohiyatni utilizatsiya qilish qobiliyatidir[4].

Kuchni rivojlanirish metodlari va ularni qarshilik bilan bajariladigan mashqlarga yo‘naltirilganligi

1-jadval


Kuchni rivojlanirish metodlari	Kuchni rivojlanirish metodlarining yo‘naltirilganligi	Yuklama komponentlarining mazmuni					
		Maksimumdan qarshilik og‘irligi %	Mashqlarini takrorlash soni	Urinishlar soni	Dam olish, daqiqa	Harakatlar tezligi	Mashqlarni bajarish maromi
Maksimal kuchlanish metodi	Kuchlarni maksimal rivojlanirish ustunligi	100 gacha va undan ko‘p	1-3	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyorli
	Mushaklar massasini sezilarli o’sishi bilan kuchni maksimal rivojlanirish	90-95	5-6	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyorli
	Mushaklar massasi va kuchni bir hilda oshirish	85-90	5-6	3-6	2-3	o‘rtacha	o‘rtacha
Chegaraviy bo‘lmagan kuchlanishlarning sonini me’yorlab takrorlash metodi	Mushaklar massasini oshirish ustunligi bilan kuchni maksimal o’sishi	80-85	8-10	3-6	2-3	o‘rtacha	o‘rtacha
	Kuch chidamliligini takomillashtirish va tana massasi yog‘ qatlamini kamaytirish	50-70	15-30	3-6	3-6	o‘rtacha	Maksimal gacha yuqori
	Mushaklar relefli va kuch chidamliligini takomillashtirish	30-60	50-100	2-6	5-6	yuqori	yuqori
Chegaraviy bo‘lmagan kuchlanishlarning takrorlash metodi (ohirigacha)	Kuch chidamliligini takomillashtirish (anaerob sharoitda)	30-70	ohirigacha	2-4	5-10	yuqori	Sub-maksimal
	Kuch chidamliligini takomillashtirish (glikolitik hajmda)	20-60	ohiriga cha	2-4	1-3	yuqori	Sub-maksimal
Dinamik kuchlanishlarning metodi	Og‘irlilik harakatlari yordamida tezlikni takomillashtirish	15-35	1-3	Tezlik pasayguncha	tiklanishga cha	Maksimal	yuqori
“Zarbdor” metodi	Harakat apparatining reaktiv qobiliyatları va “portlovchi kuch”ni takomillashtirish	15-35	5-8	Kuchlanish quvvati pasayguncha	tiklanishga cha	Maksimal	ixtiyorli

Maksimal kuchlanish metodi maksimal qarshilikka bardosh berish zaruriyatini bilan bog‘liq vazifani bajarishni nazarda tutadi (masalan, chegaraviy og‘irlidagi shtangani ko‘tarish).

Usbu metod chegaraviy bo‘lmagan metodga nisbatan kuchni oshishiga imkon berib, asab – mushak qobiliyatlarini

amaliyotda zamonaviy o‘lchov moslamalari standart vazifalardagi barcha mushak guruhlarining (tana segmentlarini bukish va yozish), shuningdek, statik va dinamik kuchlanishlardagi kuchni o‘lchash imkonini beradi. Ommaviy amaliyotda kuch sifatlarining rivojlanish darajasini baholash uchun ancha ko‘p foydalilaniladigan maxsus nazorat mashqlari (testlar) qo‘llaniladi. Ularni qo‘llash biror - bir qimmat baho moslama va jihozlarni talab qilmaydi. Maksimal kuchni aniqlash uchun texnik jihatdan oddiy bajariladigan mashqlardan foydalilaniladi, masalan, yotgan holda shtangani ko‘tarish, shtanga bilan o‘tirib turish va h.k. Ushbu mashqlardagi natija texnik mahorat darajasiga unchalik bog‘liq emas. Maksimal kuch shug‘ullanuvchi (tekshiriluvchi) ko‘tara oladigan eng katta og‘irlik bo‘yicha aniqlanadi.

1- rasm. Tezkor – kuch qobiliyatları va kuch chidamliligi, kuchni rivojlanish darajasini baholash uchun (testlar) nazorat mashqlari.



rivojlanishini ta’minlaydi. Bolalar va yangi shug‘ullanishni boshlaganlar bilan ishslashda uni qo‘llash tavsiya qilinmaydi, agarda uni qo‘llashga zaruriyat tug‘ilsa u holda mashqlarni bajarilishini qattiq nazorat qilinishini ta’minalash zarur.

Chegaraviy bo'limgan kuchlanish metodi chegaraviy takrorlash soni bilan chegaraviy bo'limgan og'irliliklardan (ohirigacha) foydalanishi nazarda tutadi.

5-6 dan 100 gacha qattiq me'yorlangan takrorlashlar soni kuch qobiliyatlarini rivojlantrishga yo'naltirilgan va maksimal kattalikka yetmagan og'irlik kattaligiga bog'liq. Chegaraviy bo'limgan og'irliliklardan foydalanib bajariladigan davomli takrorlashlar inson organizmining umumiy funksional imkoniyatlarining oshishi, organizmning boshqa tizimlari va mushak tizimining faollashishiga imkoniyat yaratadi.

Dinamik kuchlanish metodi Ushbu metodning maqasadi - maksimal tezlikdagi chegaraviy qarshilik bilan maksimal kuchlanish tarangligi orasida hamjixatlikni yaratishdan iborat. Ushbu holatda mashq to'liq amplitudada bajariladi. Ushbu metod tezkor harakat sharoitlarda katta kuch qobiliyatlarini shakllantirishda, tezkor kuchi rivojlantrishda qo'llaniladi.

"Zarb dor" metodi – yuqorida tushayotgan yuk yoki tana og'irligi (chuqurlikka sakrash va yuqoriga qaytish, jumladan, og'irliklar bilan) kinetik quvvatdan foydalanish yo'li bilan mushak guruhlariga zARB dor ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki tezkor cho'zilishdan keyin mushaklarning kuchli qisqarishi kuzatiladi. Ularning qarshilik kuchi tana og'irligi va qulash balandligiga ta'sir ko'rsatadi. 0,75 – 1,15 m balandlikka optimal sakrash diapazoni kuzatuv yo'li bilan aniqlangan. Ammo amaliyat shuni ko'rsatadi, ayrim holatlarda tayyorgarligi past sportchilarda nisbatan 0,25 – 0,5 m past balandlikni qo'llash maqsadga muvofiq.

Statik (izometrik) kuchlanish metodi Kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda yechiladigan vazifalarga bog'liq holda turli kattalikdagi izometrik kuchlanishni qo'llashni nazarda tutadi. Maksimal kuchni tarbiyalashda izometrik kuchlanishni asta – sekin oshirib borish maqsadga muvofiq. Izometrik mashqlarni bajargandan keyin bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish lozim. Shug'ullanish 10 – 15 daqiqa davomida olib boriladi. Mashg'ulotlarga izometrik mashqlarni kuchni rivojlantrish uchun qo'shimcha vosita sifatida kiritish mumkin.

Statodinamik metod Izometrik va dinamik - mushaklar ishida ikkala tartibdagi mashqlarni ketma – ketlikda moslashuvini tavfsiflaydi. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uchun maksimumdan 80 – 90 % sezilarli qarshilikdagi pasaytirilgan portlovchi dinamik ish tavsifidagi 2-6 soniyali izometrik kuchlanishli mashqlar qo'llaniladi (bitta urinishda 2-3 qismdan

iborat 2-3 takrorlash, qismlar orasida dam olish 2-4 daqiqa). Agarda, maxsus kuch qobiliyatlarini aynan, variativ tartibdag'i mushaklar ish faoliyatida musobaqa mashqlarini qo'llashta zaruriyat bo'lsa, u holda ushbu metod maqsadga muvofiqdir.

Aylanma trenirovka metodi Turli guruhdagi mushaklarga majmuiali ta'sirni ta'minlaydi. Mashqlar bekatlar bo'ylab o'tkaziladi va ular shunday tanlanadiki, har bir keyingi seriya yangi mushaklar guruhini qamrab olishi lozim. Har xil mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatuvchi mashqlar miqdori, bekatlarda ularni bajarish davomiyligi mashg'ulot jarayonida hal etiladigan vazifalar, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog'liq. Chegaraviy bo'limgan og'irliliklardan foydalanib bajariladigan mashq majmuulari davra bo'ylab 1 – 3 marta takrorlanadi. Majmuuning har bir takrorlanish oralig'ida dam olish muddati kamida 2 – 3 daqiqa bo'lib, bu vaqtida bo'shashtiruvchi mashqlar bajariladi[5], [6].

O'yin metodi kuch qobiliyatlarining asosan o'yin faoliyatida tarbiyalanishini nazarda tutadi, bunda o'yin vazifalarini har xil mushak guruhlarining zo'riqish rejimlarini o'zgartirishga va organizmni ortib borayotgan charchog'i bilan kurashishga majbur qiladi.

Bunday o'yinlar sirasiga tashqi ob'yektlarning tutib turilishini talab etuvchi (masalan, "Chavandozlar" o'yinida sherikni), tashqi qarshilikni yengishga asoslangan (masalan, "Arqon tortish"), har xil mushak guruhlarini zo'riqtirish rejimlarini navbatlash bilan bog'liq (masalan, har xil vaznli og'irliklarni ko'tarib yurish estafetalari) o'yinlar kiradi[3].

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagoglar har doim shug'ullanuvchilarning tabiiy rivojlanish darajasini hamda jismoniy tarbiya dasturlarida va musobaqa faoliyati xususiyatlarida nazarda tiltilan talablarni e'tiborga olgan holda ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantrish usullarini tanlashga ijodiy yondashish kerak.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlantrish metodlarining ahamiyati nihoyatda dolzardir chunki, jahon olimpiadalarini g'oliblari, qolaversa mamlakatimiz miqyosida o'tkaziladigan musobaqa va championat ishtiroychilarini aynan o'quvchilar va ularning jismoniy jihatdan kuchli va chidamli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari musobaqalarda qatnashmaydigan o'quvchilarda ham jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishi salomatlik ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2018 yildagi PF-5368-son.
2. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007., 386 b.
3. O'L.Matnazarov. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. T: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti, 2022.: 163 b.
4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.
5. Maxkamjanov K, Salomov R, Ikramov I. Jimoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: "Iqtisod moliya", 2008.- 18 b.
6. Salomov R.S. Jimoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, 1-jild.T.: "ITA PRESS", 2015 -9 b.